



**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI**

**24-OKTYABR
2025-YIL**



**O'zbek tilining
xalqaro maydondagi
nufuzi: tarix, bugun
va istiqbol**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI**



**O'ZBEK TILINING XALQARO MAYDONDAGI NUFUZI: TARIX,
BUGUN VA ISTIQBOL**

**ВЛИЯНИЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА НА МЕЖДУНАРОДНОЙ
АРЕНЕ: ИСТОРИЯ, СОВРЕМЕННОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ**

**THE PRESTIGE OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE
INTERNATIONAL ARENA: HISTORY, PRESENT, AND FUTURE**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami

OCTOBER 24, 2025



УДК:811.512.133(091)(100)(08)

Bugungi kunda “O‘zbekiston-2030” strategiyasining asosiy vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuqlarini amaliyotga joriy etish yo‘li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya’ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e’tirof etilishiga xizmat qilishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrda “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni ijrosini ta’minlash hamda ta’lim jarayonida o‘zbek tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish va o‘qituvchilarga uslubiy yordam ko‘rsatish maqsadida 2025-yil 24-oktyabrda o‘tkaziladigan **“O‘zbek tilining xalqaro maydondagi nufuzi: tarix, bugun va istiqbol”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning maqolalar to‘plamini e’lon qiladi. Mazkur ilmiy maqolalar to‘plamida o‘zbek tili tarixi va uning xalqaro aloqalardagi o‘rni, hozirgi o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari, akademik litseylarda o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi, turkiy xalqlar adabiyoti tarixi, turkiy tillarning rivoji va o‘zaro o‘xshashliklari, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o‘rganish, madaniy aloqalami zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish, raqamli texnologiyalar davrida o‘zbek tilining imkoniyatlari, raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To‘plamdan dunyo bo‘yicha taniqli turkiyshunos olimlar, universitetlar, akademik litseylar professor o‘qituvchilari, iqtidorli talabalar hamda o‘quvchilarning maqolalari ham o‘rin olgan.

TAQRIZCHILAR:

Normamatov Sultonbek Ermamatovich - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori

Ismailova Vasila Shuxratovna - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

TAHRIR HAY’ATI:

Adizov Bekjon Qo‘chchiyevich - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi direktori

Aliqulova Dilbar Esanovna - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Baxtiyorov Qobuljon Odiljon o‘g‘li - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

Mazkur to‘plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2025-yil 30-oktyabrda 4-sonli ilmiy majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o‘zlari mas’uldirlar.



O'ZBEK TILIDAGI SINTAKTIK BIRLIKLARDA KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK MA'NO IFODALANISHI

Qazaqova Nozima Abdulboqiyevna

University of Business and Science dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori

e-mail: nozimakozakova2@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.2025.24.10/IBHJ3895

Annotatsiya. Sintaktik sath tilning eng yuqori va eng murakkab sathi sifatida pragmatik imkoniyatlarining kengligi bilan ahamiyatlidir. Matn pragmatikasi sintaktik qurshovda o'zining aniq ko'rinishi va mazmuniga ega bo'ladi. Har qanday gap o'zining propozitiv, modal, kommunikativ hamda ba'zan presuppozitiv aspektiga ega bo'ladi. Semantikaga qo'shimcha ravishda ifodalanadigan modal, kommunikativ hamda presuppozitiv mazmun pragmatika uchun ahamiyatli bo'lib, ularning yuzaga chiqishi gap tarkibidagi sintaktik qurilmalar, birliklar mazmuniy tuzilishi, pozitsiyasi bilan uzviy aloqador bo'ladi. Ayniqsa, kirish va kiritma konstruktsiyalar, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, gap bo'laklari tartibi, undalmalar, gapning aktual bo'linishining jumlagi pragmatik ma'no yuklashdagi o'rni katta. Ushbu maqolada shu haqda batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: sintaktik sath, matn pragmatikasi, mazmuniy mundarija, gapning aktual bo'linishi, emotsional-ekspressivlik, semantika, sintaktik qurshov, kesim.

Gap mazmuniy mundarijasida muayyan voqea-hodisa haqidagi fikr hamda shu fikrga bo'lgan so'zlovchi munosabati yotadi. Bildirilgan fikrga nisbatan so'zlovchi munosabatining u yoki bu tarzda ifodalanishini ko'rsatuvchi, emotsional-ekspressivlikni yuzaga chiqaruvchi sintaktik birliklar va hodisalar pragmatik



qiymatga ega bo'ladi. Gap tarkibidagi kirishlar, undalmalar, gapning kommunikativ turlari orqali subyektiv munosabatning, emotsionallikning aks etishi G'.Abdurahmonov, A.Abdullayev, N.Mahmudov, A.Nurmonov, M.Hakimov kabi qator olimlar tomonidan qayd etilgan.

Aslida har qanday gap muayyan maqsad asosida yuzaga kelgan fikr hamda shu fikrga qo'shimcha ravishda paydo bo'lgan his-tuyg'ular, yoki aksincha, muayyan his-tuyg'u natijasida paydo bo'lgan fikr ifodasi sanaladi. Gap nutq ichida yashaydi.[1.31] Shuning uchun gap mazmuni nutqiy vaziyat bilan uzviy bog'liq. Bu ham gapning pragmatik xususiyatlarini tavsiflaydi.

Masalan: *Endi nima qilaman?...Axir bu go'dakda nima ayb?* ("Yodgor") Mazkur jumlar kontekstdan tashqarida sof so'roq mazmunini ifodalashi mumkin. Lekin pragmatik kontekstda birinchi jumla sub'ektning noiloj vaziyatda ekanligini, ikkinchi jumla darak mazmunini emotsional-ekspressiv tarzda aks ettiradi: *Qorni ochdimikan yo tagi ho'l bo'lib qoldimi – yig'lay boshladi.*

Endi nima qilaman? Axir, bola ulg'ayib, ota-onasini topib olguncha, ochdan-och ko'chada ko'tarib yurish mumkin emas-ku! Axir bu go'dakda nima ayb? Ayb ota-onasida. ("Yodgor")

Gapning aktual bo'linishi gap bo'laklarining pragmatik xususiyat kasb etishida ahamiyatli sanaladi. Chunki gapning aktual bo'linishi so'zlovchi ichki maqsadi bilan bog'liq ravishda shakllanadi.

Gapning aktual bo'linishi matndagi mazmuniy yaxlitlik, ichki aloqadorlikni aks ettiradi.

Ma'lumki, gapda aktual bo'linish nazariyasiga ko'ra ma'lum qism tema, yangi qism rema deb yuritiladi. An'anaviy holatda kesim va uning guruhi remani aks ettiradi. O'zida predikativlikni aks ettiradigan, gapni uyushtiruvchi va shakllantiruvchi markaziy bo'lak kesimdir.[2.66] Barcha bo'laklar bevosita yoki



bilvosita kesimga bog'lanadi. Gapning aktual bo'linishiga ko'ra o'zbek tilida eng muhim sanaluvchi so'z va birikmalar predikat vazifasida keladi va remani ifodalaydi. Masalan: *Bu choyxonada meni mahliyo qilgan narsalarning biri kiraverishning shipiga ilib qo'yilgan katta, simlariga zarhal berilgan, har xil tumorlar, bayroqchalar bilan bezatilgan qafas va bu qafasdagi jonli to'ti edi, o'lib ketay agar, tirik to'ti edi* ("Shum bola").

Tema – *Bu choyxonada meni mahliyo qilgan narsalarning biri, rema – kiraverishning shipiga ilib qo'yilgan katta, simlariga zarhal berilgan, har xil tumorlar, bayroqchalar bilan bezatilgan qafas; jonli to'ti edi, tirik to'ti edi.* So'zlovchi ichki maqsadiga ko'ra asosiy fikr qaratilgan ob'ektni bildiruvchi so'zlar jumla so'ngiga joylashtirilgan va tinglovchining asosiy e'tibori aynan shu bo'lakka tortiladi.

Turkiy tillarda kesim fikrni uyushtiruvchi markaz sifatida gapdagi so'zlar tartibiga ham ta'sir ko'rsatadi. Asosiy e'tibor qaratiluvchi va mantiqiy urg'u oluvchi bo'lak kesimdan oldinga joylashtiriladi: *Hech kutilmaganda erta bilan choyning ustiga kirib borishim kampir bechorani juda dovdiratib qo'ydi.* ("Yodgor"). *Kampir bechorani* birikmali vositasiz to'ldiruvchining kesim oldidan qo'llanishi boshqalarning emas, aynan kampirning kuchli ta'sirlanish ostida bo'lganini ta'kidlaydi, presuppozitsiyaga yo'l ochadi.

Fikrni to'liq bayon qilish, harakat, holat, shaxs, narsa va hodisalar haqidagi axborotni mukammallashtirish, so'zlovchining tasvirlanayotgan voqelikka munosabatini aniqlashtirishda ikkinchi darajali bo'laklarning ahamiyati katta. Jumladan, to'ldiruvchi kesimning obyekt valentligini to'ldiruvchi ikkinchi darajali bo'lak sifatida ot, olmosh, son, otlashgan so'zlarga kelishik yoki ko'makchilarni qo'shish orqali hosil qilinadi. Semantik jihatdan shaxs, predmet, miqdor, harakat, holat, ko'rsatish kabi ma'nolarni ifodalovchi to'ldiruvchi ham gapda egallagan pozitsiyasi va ifodalovchi so'zga ko'ra pragmatik xususiyatlarga ham ega bo'lishi



mumkin. Xususan, chiqish kelishigi shaklidagi to'ldiruvchi qiyoslash mazmunini ifodalash maqsadida qo'llanganda baho munosabati ham aks etadi. Masalan: *Akam Yodgorni erkalab turib:*

– *O'g'ling o'zingdan ham o'tkir chiqadi-da!...– desa, kampir:*

– *Xap ko'zingga, qo'y, bolam, unaqa dema, bola degan **guld**an ham nozik bo'ladi, – deb qo'yadi (“Yodgor”). Ham yuklamasi qiyoslash ma'nosini ta'kidlashga xizmat qiladi.*

Kirish so'z va birikmalar so'zlovchining ifoda etilayotgan fikrga munosabatini bildirishi bilan pragmatika uchun ahamiyatli sanaladi. Bunday bo'laklar qahramonlar nutqiga so'zlashuv bo'yog'ini berish maqsadida qo'llanishi mumkin. Masalan: “...***Xo'sh desangiz**, Bag'dod degan shaharda Abu tanbal degan bir yalqov yigit o'z onasi qoshida yashar ekan...*” (“Tirilgan murda”)

Biror shaxs, belgi-xususiyat yoki holatni ajratib, ta'kidlab ko'rsatish maqsadida qo'llanadi: ***Ayniqsa**, bitta chol juda ezma edi* (“Tirilgan murda”). *Xat, ayniqsa, rasm yuragimga o't yoqdi* (“Yodgor”).

Noiljlik mazmunini yuklash uchun qo'llanadi: *Ha, qanday qilay, dunyoning ishi shunday ekan* (“Tirilgan murda”).

Tasdiq nutqiy aktini yuzaga keltirishda kirish so'z ahamiyatli: ***Haqiqatan ham**, o'rtoq komandir menga bergan so'zida turdi* (“Yodgor”).

Taajjub mazmunini ifodalaydi: *Ajabo, Saodat meni chindan ham sevadimi?* (“Yodgor”) Quyidagi jumlada bu mazmun yana ham kuchayadi: ***Buni qarang-a**, bizning uyimizga o'g'ri kepti* (“Mening o'g'rigina bolam”).

Bir qarorga kelish mazmunini ifodalaydi: ***Yaxshisi**, hech narsa yubormayman* (“Yodgor”). ***Yaxshisi**, bunday xayollarni unutish kerak* (“Yodgor”).



– Ha, ishqilib, bola-chaqasining egiligini ko'rsin (*"Mening o'g'rigina bolam"*).

So'zlashdan maqsad nafaqat axborot berish va fikr almashish, balki tinglovchida o'z fikrini uyg'otishga urinish, muayyan maqsadga yo'naltirish va boshqarishga urinishdan ham iboratdir. Ana shu vazifalarning yuzaga chiqishida sintaktik vositalardan biri undalmalar ham alohida o'rin egallaydi. Undalma tilshunoslikda murojaat shakllari, murojaat birliklari sifatida ham qayd etiladi.

Undalmalar muloqot jarayonida, badiiy matnda quyidagi pragmatik vazifalarni bajaradi:

1. So'zlovchining tinglovchiga, ya'ni murojaat obyektiga nisbatan baholovchi, hissiy munosabatini ifodalaydi.
2. Nutq ob'ektini biror harakatni bajarishga undash, da'vat, taklif qilish, buyurish maqsadini bildiradi.
3. Murojaat birligi vositasida tinglovchining diqqati jalb qilinib, o'zaro munosabat o'rnatiladi.
4. Tinglovchiga emotsional, ruhiy ta'sir ko'rsatib, javob reaksiyasini uyg'otiladi.

Undalmalarning pragmatik qiymati ularning perlokutiv effekti, samaradorligi bilan bog'liq. Shu masalaga doir quyidagi hikmatli rivoyat bor: O'tmishda "ovi yursa ham dovi yurmay" tobora kambag'allashib borayotgan bir dehqon yo'l chetida o'ylanib tursa, faqirgina yo'lovchi o'tib qolibdi. SHunda dehqon:

– *Ey donishmand*, nima eksam, men boyib ketaman, deb maslahat so'rabdi.

Yo'lovchi unga piyoz ekishni tavsiya etibdi. Notanish yo'lovchining gapiga kirgan dehqon o'sha yili chindan ham boyib ketibdi. SHodligidan bosar-tusarini bilmay qolgan dehqonga yana o'sha odmigina yo'lovchi uchraganida:



– *Ey gado*, nima eksam, yanada boyib ketaman, –deb ikkinchi marotaba murojaat qilibdi.

Shunda u yana bir ekinning nomini aytib, yo'lida davom etibdi.

Falakning gardishini qarangki, keyingi yili dehqonning omadi chopmay, ilgarigidan ham kambag'allashib ketibdi.

Bundan g'oyatda g'azablangan dehqon haligi yo'lovchini sabrsizlik bilan kuta boshlabdi. Nihoyat, u tanish yo'lovchi duch kelibdi va:

– Ey notavon yo'lovchi, nega meni aldading. Gapingga kirib, yanada boyish o'rniga butkul kambag'allashib ketdim-ku! – deya g'azab qilibdi.

– O'zingni bos, – debdi yo'lovchi, – birinchi yili sen menga “donishmand” deb murojaat qilding. Men senga donishmandning javobini berdim. Natijada sen boyib ketding. Keyingi safar esa sen menga “gado” so'zini munosib ko'rding va men gadoning javobini berdim, – degan ekan.[2.35-36]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, murojaat birligining o'rinli tanlanishi va qo'llanishi nutqning natijaviyligini ta'minlaydi. Sintaktik birliklarning pragmatik jihatdan samaradorligi ularning semantikasi bilan ham uzviy bog'liq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
2. Сиддиқ Мўмин. Мулоқот мезони. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.
3. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987.
4. Qazaqova N. Badiiy matn pragmatikasi (G'. G'ulom nasriy asarlari misolida). – Namangan, 2020.



№	MAQOLA SARLAVHASI VA MUALLIFLARI	SAHIFASI
I SHO'BA. O'ZBEK TILI TARIXI VA UNING XALQARO ALOQALARDAGI O'RNI		
1	ÖZBƏKİSTAN RESPUBLİKASINDA DİL SİYASƏTİNİN MÜSTƏQİLLİKDƏN SONRAKİ İNKİŞAF MƏRHƏLƏLƏRİ - Elçin İBRAHİMOV Prof. Dr. Qarabağ Universiteti Elm şöbəsinin müdiri	19-35
2	ORTAK DEĞERLERİMİZ: DİLİMİZ, KÜLTÜRÜMÜZ VE ATASÖZLERİMİZ - Ahmet Hamdi SALBAŞ Ali Şir Nevai Akademik lisesi öğretmeni	36-41
3	O'ZBEK TILINING XALQARO MIQYOSDA OMMALASHUVI: RIVOJLANISH OMILLARI VA ISTIQBOLLARI - Bahodirov Botir Baxodirovich - Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi yoshlar ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari	42-47
4	TIL – MILLAT KO'ZGUSI - Baxodirova Mashhura Baxodirovna, Osimova Rayxona Adhamjon qizi - Farg'ona davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari	48-51
5	O'ZBEK TILI TARIXI VA UNING XALQARO ALOQALARDAGI O'RNI - Nazarova O'rozhol Xudoyberdiyevna - Termiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	52-55
6	FRANSUZ TILINI TARIXIY RIVOJLANISHI - Usmanova Malika Adilovna Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi "Chet tillar" kafedrasida fransuz tili fani o'qituvchisi	56-58
7	FRANSUZ TILIDA FRAZELOGIK BIRLIKLARI - Andapulatova Firuza Ikramovna - Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi "Chet tillar" kafedrasida fransuz tili fani o'qituvchisi	59-62
8	O'ZBEK TILINING XALQARO MAYDONDAGI NUFUZI: TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI - Yangiboyeva Umida Ravshanbek qizi Urganch innovatsion universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi, 24-01 guruh talabasi	63-66
9	MAXMUD QOSHG'ARIYNING LINGVISTIK QARASHLARI - Umarov Abroroxuja Vaxobovich Namangan davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	67-70
10	O'ZBEK TILINING XALQIMIZ VA XALQARO ALOQALARDAGI AHAMIYATI - Saidova Dildora Baxtiyarovna TDTU 3-son akademik litseyi o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi	71-74
11	O'ZBEK TILI: MILLIY O'ZLIK VA XALQARO E'TIROF RAMZI - Eshnayeve Feruza Qarshiyevna Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	75-77
12	İLİM ÜZERİNE - Zahro Mahmudova Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi Xorijiy tillar (turk) yo'nalishi o'qituvchisi	78-82
13	"CODEX CUMANICUS"DA İŞLƏNƏN BƏZİ SÖZLƏRİN DİALEKTLƏRDƏ İZLƏRİ - İmanyar QULİYEV AMEA Nəsimi adına Dilçilik İnstitutu, böyük elmi işçi, fil.ü.f.d. Bakı Avrasiya Universiteti, müəllim	83-94
II SHO'BA. HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI		
14	ELBEKNING LUG'ATCHILIK FAOLIYATI HAQIDA - Normamatov Sulton Ermamatovich Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Filologiya fanlari doktori (DSc), professor	96-102
15	IS'HOQXON IBRAT ASARLARIDA IJTIMOYIY-SIYOSIY, MAISHIY LEKSIK QATLAM QO'LLANISHIDAGI LISONIY VA NOLISONIY OMILLAR - Latipov Murotali Mannobovich Guliston davlat universiteti Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.	103-107
16	ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING O'ZBEK TILI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI - Abbasova Mubina Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti stajer-tadqiqotchisi	108-112
17	FIZIOLOGIK HOLAT FE'LLARINING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR - Pulat Fozilov Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi	113-119
18	DINIY LEKSEMALARINING SEMANTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI TAVSIFI -Mirzayeva Mashxura Ravshanbek qizi Farg'ona davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	120-124



19	LINGVOPRAGMATIKANING TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI - Kobilov Nomoz O'rolovich Sharof Rashidov nomidagi SamDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi (PhD)	125-128
20	HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI - Abdurasulova Raximaxon Odiljon qizi Namangan davlat pedagogika instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	129-131
21	KULOLCHILIK LEKSIKASIDA DETERMINATSIYA VA TERMINOLOGIZATSIYA HODISALARI Mamatkulova Zilola Rejabaliyevna Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori	132-136
22	QADIMGI VA ESKI TURK BITIKLARIDA TABG'ACH VA QITANY (XITOIY) TOPONIMLARI MASALASI - Mamajonov Alisherbek Ravshanbek o'g'li Farg'ona davlat univeristeti Lingvistik: o'zbek tili mutaxassiligi magistranti	137-143
23	HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI - Tilovova Guljahon Dilmurod qizi Shahrisabz davlat pedagogika instituti huzuridagi akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	144-147
24	"MUNOZARA" DRAMASIDA QO'LLANGAN BA'ZI UNDOV SO'ZLARINING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI - Usmonova Shaxnozaxon Erkinjonovna TDYU huzuridagi Namangan viloyati akademik litseyi Tillar kafedrasida yetakchi o'qituvchisi	148-151
25	O'ZBEK TILIDA SINTAGMATIK MA'NO VA SINTAGMATIK MUNOSABAT, ULARNING IFODALANISH YO'LLARI - Usmonova Huriniso Sharapovna, Namangan davlat universiteti professori	152-156
26	HID KONSEPTI - Qurbonov Akmaljon Tavakaljon o'g'li Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi	157-162
27	METATIL VA TARIXIY TURKOLOGIYA: 'AT-TUHFATUZ ZAKIYATU FIL-LUG'ATIT-TURKIYA ASARINING ILMIY MEROSI - Xolbekova Nargiza Zohidjonovna FarDU mustaqil izlanuvchisi, FarDU akademik litseyi ingliz tili o'qituvchisi	163-165
28	O'ZBEK VA INGLIZ DISKURSIDA TOLERANTLIKNING MADANIY JIHATDAN IFODALANISHI - Gavharoy Yormatova Abdulla qizi Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ingliz tili o'qituvchisi	166-171
29	O'ZBEK TILIDA O'XSHATISHLI QURILMALAR BADIYATI - Gazibekova Soxiba Yusupovna O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining mustaqil izlanuvchisi	172-176
30	AYRIM DEHQONCHILIK LEKSIKASI ETIMOLOGIYASI - Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna Urganch davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti katta o'qituvchisi	177-181
31	NAMANGAN QIPCHOQ SHEVALARIDA ADABIY TIL LUG'ATINI BOYITISHGA XIZMAT QILUVCHI BIRLIKLAR - Mamatismoilova Xanifa Hayitmirzayevna, NamDTU 2-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Pirmatova Mahfuza Muhibullayevna, NamDTU 2-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	182-189
32	O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA YUKLAMALAR TADQIQI - Ismailova Dilnoza Shavkatovna Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	190-195
33	O'ZBEK TILIDAGI SINTAKTIK BIRLIKLARDA KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK MA'NO IFODALANISHI - Qazaqova Nozima Abdulboqiyevna, University of Business and Science dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori	196-201
34	XALQ DOSTONLARI LEKSIKASINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI - Abduqahhorova Muattar Ma'rufjon qizi, Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	202-207
III SHO'BA. AKADEMIK KITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI		
35	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR INTEGRATSIYASI - Adizov Bekjon Qo'chchiyevich, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi direktori	209-219
36	«LEKSIKOLOGIYA» BO'LIMINI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING SO'Z BOYLIGINI OSHIRISH YO'LLARI - Ismailova Vasila Shuxratovna, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	220-230



37	AKADEMIK LITSEYDA O'ZBEK TILI O'QITISHNING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY USULLARI - Botirova Soliyaxon Ro'zivojevna O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi	231-238
38	ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI - Urazova Nargiza Qurdashovna , TXVU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	239-246
39	O'ZGA TILLI GURUHLARDA ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH -Shomurodova Sitora Xoshim qizi , "International house – Tashkent" akademik litseyi o'zbek tili fani o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)	247-250
40	UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ONA TILI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH MASALALARI (Qozog'istondagi ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablar misolida) - Naraliyeva Shahlo Djamalovna , Jumabek Tashenev nomli universiteti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) (Qozog'iston, Chimkent) Hulkar Hamroeva , O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi dosenti, filologiya fanlari doktori (O'zbekiston, Toshkent)	251-260
41	SAID AHMADNING „QORAKO'Z MAJNUN“ASARINI O'RGANISH - Nasriyeva Dilbar Muhiddinovna , Chirchiq davlat pedagogika universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	261-264
42	AKADEMIK LITSEY DARS JARAYONIDA "QUTADG'U BILIG" ASARINING O'QITILISHI - Matkarimova Nasiba Bekchanovna , Toshkent davlat transport universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	265-267
43	AKADEMIK LITSEYLARDA ANTON PAVLOVICH CHEXOV HAYOTI VA IJODINI O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI - Farida Abdullayeva Xayrulla qizi , Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI akademik litseyi o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi	268-272
44	AKADEMIK LITSEY DARSLIKLARIDA TAQLID SO'ZLAR MAVZUSINING BERILISHI TO'G'RISIDA - Narziyeva Nazokat Abdurasulovna , Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, SamDU mustaqil izlanuvchisi	273-277
45	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI -Mansurova Zilola Bahodirovna , Navoiy davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi	278-283
46	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FANINI O'QITISHDA INGLIZ TILI METODIKASIDAN FOYDALANISH TAHLILI - Ashurova Feruza Maxamadyusupovna , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi chet tillari kafedrasida ingliz tili fani o'qituvchisi	284-288
47	ADABIYOT – SO'Z SAN'ATI - Xakimova Shapoat Pazliddinovna , Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	289-293
48	ABDULLA QODIRIY IJODINI O'RGATISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH - Djabbarova Nodira Shovkat qizi , Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	294-297
49	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI - Ahmadaliyev Shohruh , Toshkent Davlat Yuridik Universiteti huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi Matematika fani o'qituvchisi	298-303
50	ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI LOYIHA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI - Mamatova Maxbuba Abdulboqi qizi , Namangan davlat pedagogika instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	303-306
51	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH - Toshmurodova Xalima To'raxonovna , Chirchiq davlat pedagogika universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	307-310
52	KOMIL INSONNI TARBIYALASHDA DIDAKTIK ADABIYOTNING O'RNI - To'xtaboyeva Muyassar , Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani, oliy toifali o'qituvchisi, falsafa fanlar doktori (PhD) Jo'rayeva Muhabbat , Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani oliy toifali o'qituvchisi	311-315
53	ADABIYOT O'QITISHDA BADIY TAHLIL MUAMMOLARI - Hamdamova Manzura Jurabayevna , Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	316-319



54	ONA TILI DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH - Achiliva Nasiba Saidovna , Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot o'qituvchisi	320-324
55	AKADEMIK LITSEYLARDA "MA'NO KO'CHISH YO'LLARI" MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI - Egamberdiyeva Vazira G'ulomovna , Guliston davlat universiteti akademik litseyi Ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi	325-328
56	ADABIYOT DARSLARIDA FSMU TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH - Matluba Rahmonova Usmonovna , NamDU akademik litseyi o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi	329-333
57	«HOL VA UNING USLUBIYATI» MAVZUSINI O'RGANISHDA AXBOROT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI - Achilova Zarina Saidovna , Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	334-338
58	ADABIY MATN ASOSIDA LINGVOMADANIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI - Norov Jamshid Nurulloevich , Buxoro davlat pedagogika instituti, Xorijiy tillar kafedrası tayanch doktoranti	339-342
IV SHO'BA. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING IMKONIYATLARI		
59	SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH: IMKONIYATLAR, USULLAR VA MUAMMOLAR - Aliqulova Dilbar Esanovna , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari	344-352
60	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR IMKONIYATLARI. "RAQAMLI O'ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASI - Shodiyeva Nigora Murodullayevna , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi informatika fani o'qituvchisi	353-358
61	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI - Sulaymonova Nafisa Sattorovna , Navoiy davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	359-362
62	TILSHUNOSLIKDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARNING O'RNI - Qosimova Dilnoza Toshkanovna , O'zDTU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	363-367
63	ЦИФРОВАЯ ВИЗУАЛИЗАЦИЯ ТЕКСТА: СОЗДАНИЕ КОМИКСОВ ПО РАССКАЗУ А. КАХХАРА «ДВА САПОГА-ПАРА» С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ CHATGPT - Атабекова Айнуp Женисбековна , Преподаватель русского языка и литературы. Академический лицей Филиала РГУ нефти и газа(НИУ) имени И.М.Губкина	368-372
64	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING IMKONIYATLARI - Tilovova Guljahon Dilmurod qizi , ShDPI huzuridagi akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	373-376
65	ONA TILI TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI - Baxodirova Mashhura Baxodirovna, Osimova Rayxona Adhamjon qizi , Farg'ona davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari	377-381
66	THE ROLE OF LANGUAGE IN THE DIGITAL AGE - Ibragimova Hurriyat Uchqun qizi , JMCU master's student in Journalism Teacher of Uzbek Language and Literature at the M.S. Vosiqova Academic Lyceum under Tashkent State University of Law	382-387
67	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING IMKONIYATLARI - Bahodirova Dildoraxon Zarifjon qizi , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	388-390
68	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING IMKONIYATLARI - Saminova Muslimaxon Qudratjon qizi , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	391-394
69	YAPAY ZEKÂ VE ÖZBEK DİLİ: SORUNLAR VE ÇÖZÜMLER - Allanazarova Anora Muxobir qizi Shahrizabz davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti.	395-400
70	RAQAMLI ASRDA ONA TILI ORQALI MILLIY QADRIYATLARNI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISH- O'rinova Sayyora Xolmirzayevna , TDYU huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi "Tillar" kafedrası ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi	401-409



V SHO'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TARIXI

71	MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK –AZARBAYJAN ADABIY ALOQALARI: NIZOMIY “XAMSA” SINING TARJIMASI HAQIDA - Ashurova Gulbahor Nurullayevna , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti	411-418
72	TURKIYADA ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHNING YETAKCHI TENDENSIYALARI - Cho'lliyeva Latofat Sevindikovna , ToshDO'TAU tayanch doktranti, ToshDO'TAU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	419-438
73	ИСТОРИЯ ЛИТЕРАТУРЫ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ - Султанова Майя Туйчиевна , преподаватель АЛ САМ ГИИЯ Академический лицей Самаркандского Института Иностранных Языков Республика Узбекистан, г. Самарканд	439-443
74	ALISHER NAVOIY IJODINING TURKIY XALQLAR ADABIYOTIDA O'RGANILISHI - Karimova Yulduz Baxtiyorovna (PhD) , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	444-448
75	ADABIY MUHITNING QODIRIY IJODIGA TA'SIRI - Abdilakimov Dilruxjon Rajab o'g'li Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	449-455
76	O'RXUN-ENASOY BITIKLARI ASOSIDA TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TARIXI -Madaminova Rayhona Alisher qizi , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	456-459
77	MAHMUD QOSHG'ARIY VA UNING TURK ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI - Madina Zokirova Shuhratjon qizi , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	460-463
78	MAHMUD QOSHG'ARIY – TURKIY TIL VA ADABIYOTINING ASOSCHISI - Satimova Ra'noxon Habibullayevna , Andijon davlat tibbiyot instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	464-469
79	YUSUF XOS HOJIBNING TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI - Ne'matova Benazir Adilbekovna , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	470-473
80	JAZBIYNING TURKIY DEVONI QO'LYOZMALARI - Samadova Madina Zafarjon qizi , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	474-479
81	XIDIR DERYAYEVNING “QISMAT” ASARI TAHLILI -Xolmurodova Mahliyo , Termiz davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi	480-482
82	ILM VA ADABIYOTNING SINTEZI: "OLIM-SHOIR" MODEL - Akbarova Sayyora Sobirovna , Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Shamsiddinov Nasriddin Bahriddinovich , Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi matematika fani o'qituvchisi	483-488
83	YOSHLAR TARBIVASIDA MILLIY TILNING O'RNINI VA AHAMIYATI - GO'ZALOY MAMEDOVA Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi oliy toifali, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	489-491



